

GLOBALLASHUV DAVRIDA TA'LIM TIZIMI MUAMMOLARI

Raximov Oktyabr Dustkabilovich

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti professori

KIRISH

Hozirgi kunda XXI asr yuksak texnologiyalar zamoni, tafakkur asri, yalpi axborotlashuv asri, globallashuv davri deb ta'rif etilmoqda. "Globallashuv" atamasi dastlab amerikalik olim T.Levittning 1983 yili «Garvard biznes revyu» jurnalida chop etilgan maqolasida tilga olingan. Muallif yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqaradigan turli-tuman mahsulot bozorlarining birlashuv jarayonini shunday deb atagan. Lekin hozirgi davrda globallashuv boshqacha ma'no va ahamiyat kasb etmoqda [1].

Globallashuv - insoniyatning ongu-shuuri va tafakkuri samarasi sifatida vujudga kelgan jahon miqyosidagi umumiy jarayon. U chegara va hududlarni bilmaydigan, tuzumlarni tan olmaydigan, uzluksiz kuchayib va rivojlanib borayotgan, axborotlashgan jamiyatga o'tish jarayonidir. Bunday jamiyatda faqat inson tafakkuri yetakchi o'rin egallaydi. Tafakkur –jamiyat taraqqiyoti darajasini ko'rsatuvchi oyna. Bu oynada muvaffaqiyatlar ham, kamchiliklar ham ayon ko'rinadi. Sir emaski, insonning nechog'lik mukarramligi, komilligi fikrlash darajasi, tafakkuri bilan belgilanadi. Axborotlar inson tafakkuri va fikrlash qobiliyatini qay darajada shakllanishiga ta'sir etuchi asosiy omildir. Shu sababli zamonaviy sivilizatsiyalashgan jamiyatning hozirgi davrdagi rivoji axborotlashtirish jarayoni bilan xarakterlanadi [2].

TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot jarayonida ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, pedagogik tajriba-sinov va forsait metodlaridan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMALAR

Intellekual boylik va salohiyat manbasi, uni rivojlantirish omili ta'lim-tarbiya jarayonining sifati hisoblanadi «Biz yashayotgan XXI asr – intellektual boylik hukmron qiladigan asr [3]. Kimki bu haqiqatni o'z vaqtida anglab olmasa, intellektual bilim, intellektual boylikka intilish har qaysi millat va xalq kundalik hayot mazmuniga aylanmasa, bunday davlat jahon taraqqiyoti yo'lidan chetda qolib ketishi muqarrar».

Yuqoridagi fikrlardan xulosa o'rnida shunday savol tug'iladi?

Nima uchun ta'lim sifati insoniyatning barcha hayotiy-muhim faoliyatlariga ta'sir etadi?

Birinchidan, insoniyat sivilizatsiyasi barcha sohalarda, jumladan ta'lim tizimida ham global o'zaro bog'liqlik darajasigacha erishdi. Hozirgi kunda bitta davlat yoki millatning muammosi butun jahon rivojiga katta ta'sir etishi mumkin. Yuzaga kelgan ekologik, iqtisodiy, siyosiy muammolar va inqirozlarning yechimi faqatgina insoniyatdan kelajakda aqliy va ma'naviy rivojlanishni talab etadi. Bunga esa faqatgina to'g'ri va sifatli ta'lim tizimini yo'lga qo'yish orqaligina erishish mumkin [4,5].

Ikkinchidan, ta'limning asosiy yo'nalishi tarbiyaga borib taqaladi. Tarbiya o'ta muhim, o'ta murakkab va o'ta dolzarb masala bo'lib kelgan va bo'lib qoladi.

Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" kitobidagi "Tarbiyaning zamoni" bobida shunday jumlar bor. "Emdi ochiq ma'lum bo'ldiki, tarbiyani tug'ilgan kundan boshlamak, vujudimizni quvvatlandurmak, fikrimizni nurlandurmak, axloqimizni go'zallandurmak, zehnimizni ravshanlandurmak lozim ekan. Tarbiyani kimlar qilur, qayda qilinur? - degan savol keladur. Bu savolga "birinchi – uy tarbiyasi. Bu ona vazifasidur. Ikkinchi - maktab va madrasa tarbiyasi, bu ota, muallim, mudarris va hukumat vazifasidur"- deb javob bersak [6].

Aynan ana shu maktab va madrasa tarbiyasini avval ham, hozir ham muallim-pedagoglar amalga oshirib kelishgan. Bizningcha, tarbiyada atrof-muhit ta'siri ham yetakchi o'rinni egallamoqda. Bolalar ko'proq eshitganini yoki o'qiganini emas, balki ko'rganini qilishga harakat qilishadi.

Xo'sh, bizning o'zimiz bolalarga tarbiya bobida o'rnak bo'la olamizmi? Bolalar bizdan nimalarni o'rganishmoqda? Global Internet tizimidagi ma'lumotlar tarbiya bobida qanday o'rin egallamoqda? Internetga ma'lumotlarni, ya'ni tarbiyaga salbiy ta'sir etuvchi axborotlarni bolalar joylashtirmoqdami yoki kattalar? Balki, biz tarbiyani va ta'limni avvalo o'zimizdan boshlashimiz kerakdir? Demak, bir so'z bilan aytish mumkinki, ta'lim –tarbiya sifatli bo'lishi uchun biz o'zimiz(pedagoglar) sifatli ta'lim berishga munosib bo'lishimiz zarurdir.

Uchinchidan, insoniyatning barcha hayotiy muhim munosabatlari (siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy va b.) – insonlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va o'zaro ta'sirga bog'liq holda shakllanadi hamda rivojlanadi. Ta'lim sifatiga bog'liq holda ushbu munosabatlar darajasi va albatta siyosiy-iqtisodiy munosabatlar ham o'zgaradi [7].

Yuqorida keltirilganlardan xulosalash mumkinki, bugungi kunda dunyoda yuzaga kelayotgan barcha muammolar ildizi ta'lim-tarbiya tizimidagi sifat nuqsonlari natijasi desak xato bo'lmaydi.

Barcha muammolarni faqatgina yuksak darajadagi ong, to'g'ri tafakkur va beqiyos bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat yo'li bilangina hal etish mumkin. Buning yechimi ta'lim-tarbiyaga e'tiborni yanada oshirish, bu sohaga yanada ko'proq mablag' ajratish orqali ta'lim sifatini yuksaltirish bilan hal etilishi mumkin [8]. Lekin, ta'kidlash joizki, ta'lim sohasidagi islohotlarning yanada ijobiyligi pedagoglarning globallashtirish va axborotlashgan jamiyat ta'lim tizimi mazmun-mohiyatini nechog'lik tushunib yetishlariga va qanchalik astoydil bajarishlariga ham bog'liqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, savollar tug'iladi:

- *ta'lim sifatining asosiy mazmuni va uni belgilovchi mezonlar nimalardan iborat?*
- *nega, hozirgi kunda "ta'lim sifati-hayot sifati!" deb e'tirof etilmoqda?*
- *zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni qanday?*
- *hozirgi axborot texnologiyalari davrida ta'lim sifatini ta'minlash uchun qaysi uslubdan foydalanish o'rinli?*

- *zamonaviy pedagogik texnologiyalar va o'qitish uslublarining mazmun-mohiyati nimadan iborat?*

- *hozirgi globallashtirish va axborotlashgan jamiyat ta'lim tizimida ta'lim-tarbiya sifatini qanday ta'minlash, zamon ruhiga mos holda qanday o'zgartirish mumkin?*

Birinchi navbatda global Internet va masofaviy ta'lim imkoniyatlari hamda xalqaro ta'lim standartlari talablarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya sifatini ta'minlashning butunlay yangi tizimini ishlab chiqish zarur. Hozirgi kundagi ta'lim mazmuni ko'proq ishlab chiqarishda yuksak iqtisodiy samara olish, insonning shaxsiy manfaatlarini mumkin qadar to'liqroq qondirish masalalariga qaratilgan. Yoki boshqacha aytganda ayrim hollarda, har qanday bilim zaminida yuqori iqtisodiy samara va foyda olish yo'llarini izlash yotmoqda [10,11].

Biz bolalarimizni yuksak ma'naviy ruhda tarbiyalashga har qancha harakat qilsakda, manfaatdorlik negizidagi muhit to'sqinlik qilishi mumkin.

Har bir ota-ona o'z farzandini hech kimdan kam bo'lmasligini istaydi, oliy ma'lumot olishini va yaxshigina daromadli ishga joylashishini birinchi o'ringa qo'yadi! Lekin, aslida ta'lim-tarbiya jarayoni inson ma'naviyatini yuksak darajada shakllanishiga va rivojlanishiga xizmat qilmog'i lozim. Ya'ni, ta'lim-tarbiya tizimi faqatgina insoniyatning moddiy va ma'naviy manfaatlarini qondirishga xizmat qilmasdan, balki uning ruhini, iymon-e'tiqodini, irodasini, vijdonini poklanishiga, haqiqiy insoniy tuyg'ularni shakllanishiga xizmat qilmog'i zarur [12].

O'qish va bilim olish- insonning boshqa kundalik ehtiyojlari (yuvinish, kiyinish, ovqatlanish va b.) kabi har bir kishining ongli ravishda kundalik ehtiyojiga aylanmog'i kerak.

Ta'lim sifatini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari o'quv jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng foydalanish hisoblanadi.

Hozirgi kunda raqamli texnologiyalarning izchil rivojlanishi ta'lim tizimini xalqaro ta'lim muhiti talablariga javob berishi zarurligini taqozo etmoqda. Ta'limda axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masofaviy ta'limning

yuzaga kelishiga sharoit yaratdi. Shuningdek, ta'lim jarayonini xalqaro ta'lim jarayoniga aylanishiga asos bo'lmoqda [13,14,15].

XULOSALAR

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar asosida qo'yidagi xulosalar va tavsiyalarni taklif etamiz:

1. Ta'lim ijtimoiy hayotning muhim sohasi hisoblanadi. Aynan ta'lim jamiyatning intellektual, madaniy va ma'naviy darajasini shakllantiradi.

2. Hozirgi kunda har qanday davlatning kuchi-qudrati, rivojlanish darajasi, undagi ijtimoiy-siyosiy muhit ushbu davlatning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Intellektual salohiyatning o'sishi esa asosan ta'lim sifati bilan baholanadi.

3. Globallashuv davrida yuzaga kelayotgan ekologik, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muammolar hamda inqirozlar va ularning yechimlari ta'lim sifatiga bog'liq holda shakllanadi va rivojlanadi.

4. Har qanday davlat ta'lim sohasi sifatiga qanchalik ko'p e'tibor qaratsa, qanchalik ko'p mablag' sarflasa va natijasi eng yuqori xalqaro standartlarga javob bersa, ushbu davlatda hayot sifati shunchalik yuqori bo'ladi.

5. Ta'lim sifatini oshirishning asosiy omillaridan biri ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya va innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishdan iboratdir.

6. Ta'lim sifatini oshishi va dunyoda yagona ta'lim tizimi hamda maydonini shakllanishi o'zaro uzviy bog'liq jarayonlardir.

7. Ta'lim sifati muammosi tugallangan yechimga ega emas soha hisoblanadi. Davlat va jamiyat rivojlanishining har bir bosqichida ta'lim tizimiga o'ziga xos yangi shart-sharoitlar va talablar yuzaga keladi, ta'lim sifati mezonlari o'zgaradi va bu masalani hal etish uchun tizimli tadqiqotlar olib borish talab etiladi.

8. Ta'lim sifatini oshirish chegara bilmas sohadir. Shu sababli hozirgi kunda ta'lim sifatining o'sish dinamikasini to'g'ri baholash, uning mezonlarini aniq belgilash va kelajak ta'lim sifati ko'rsatkichlarini oldindan bashorat qilish, rejalashtirish o'ta muhim va dolzarb masala hisoblanadi.

9. Ta'lim sifati davlat va jamiyatning ijtimoiy –iqtisodiy o‘shish, rivojlanish darajasiga bog‘liq holda o‘zgaruvchan bo‘lganligi sababli, uni aniqlash hamda kelajak ko‘rsatkichlarini oldindan baholashning yagona, mukammal uslubiyoti ishlab chiqilmagan.

ADABIYOTLAR

1. Klarin M.V. Innovatsii v mirovoy pedagogike.-Riga, 1995
2. Rakhimov O. D., Murodov M. O., Ruziev X. J. Quality of education and innovative technologies //Monograph. Tashkent: Science and Technology Publishing House. – 2016.
3. Raximov O. D. i dr. Zamonaviy ta'lim texnologiyalari //T.:“Fan va texnologiya nashriyoti. – 2013.
4. Rakhimov O. et al. Positive and negative aspects of digitalization of higher education in Uzbekistan //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2022. – T. 2432. – №. 1.
5. Polat Ye.S., Buxarkina M.Yu. Sovremennyye pedagogicheskie i informatsionnye texnologii v sisteme obrazovaniya. /M.: «Akademiya», 2008
6. Rakhimov O. D., Chorshanbiev Z. E. Prospects for the application of digital technologies in training the "labor protection" course //European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630). – 2021. – T. 2. – S. 34-40.
7. Guzeev V.V. Planirovanie rezultatov obrazovaniya i obrazovatel'naya texnologiya. M.: Narodnoe obrazovanie, 2000.
8. Rakhimov O. D. et al. Klassifikatsiya pedagogicheskikh tekhnologiy i tekhnologiya problemnogo obucheniya //Problemy sovremennoy nauki i obrazovaniya. – 2020. – T. 2. – №. 147. – S. 59-62.
9. Kurdyumova I.M. Otsenka kachestva professionalnogo obrazovaniya v Velikobritanii. – M.: Izdatelskiy sentr NOU ISOM, 2003. 36 s.
10. Rakhimov O. D. et al. Unused opportunities: distance education in Uzbekistan //Scientific journal. – 2021. – №. 3. – S. 58.

11. Yakovleva N.O. Teoretiko-metodologicheskie osnovy pedagogicheskogo proektirovaniya. M.: Izd-vo ATiSO, 2002. - 239 s.
12. Kodjaspirova G.M. Istoriya obrazovaniya i pedagogicheskoy mysli: Tablisy, sxemy, oornyye konspekty: uchebnoe posobie dlya studentov vysshix uchebnykh zavedeniy. /M., 2003.
13. Rakhimov O.D., Berdiyev Sh.J., Rakhmatov M.I., Nikboev A.T. Foresight In The Higher Education Sector of Uzbekistan: Problems and Ways of Development. //Psychology and Education Journal .2021. 58 (3), P.957-968. DOI: 10.17762/pae.v58i3.30294.
14. Savenkov A. I. Tvorcheskiy proekt, ili kak provesti samostoyatelnoe issledovanie. // Shkolnyye texnologii. - 1998. № 4. - S. 144-148.
15. Raximov O. Elektron ta'lim resurslarini yaratish talablari va texnologiyasi //Sovremennoe obrazovanie (Uzbekistan). – 2016. – №. 2. – S. 45-50.